

MULOQOT MADANIYATINING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Avg'onova Gulira'no Tolibjon qizi

Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

avganovagulirano@gmail.com

Rezyume

Mazkur maqolada kishilarning hamkorlikdagi faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa ijtimoiy rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni sifatida tahlil qilingan bo'lib, insonning ruhiy ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muloqotning o'rni yoritilgan. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosligi, aynan odamlar darajasida u eng takomillashganligi yoritilgan. Insonning boshqa turdagi deyarli barcha ehtiyojlarining qondirilishi uning aynan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qay darajada qondirilishi bilan bog'liq jarayon ekanligi aytib o'tilgan. Kishilarda muloqot maqsadlari juda ko'pligi, jumladan, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lishi, uni yetkazishi va fikr almashinish jarayonida shakllanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, til, ehtiyoj, ong, nutq, idrok, ehtiyoj, muomala, axborot, shaxs, kommunikatsiya, aloqa.

Резюме

В статье анализируется многогранный процесс сотрудничества между людьми, развитие общения между ними и роль общения в формировании духовного образа человека. Коммуникация уникальна для всех живых существ и наиболее развита именно на человеческом уровне. Было сказано, что удовлетворение почти всех потребностей человека другого вида - это процесс, который зависит от того, насколько хорошо удовлетворяются его потребности в общении. Говорят, что в общении у человека много целей, в том числе процесс познания мира, его передача и обмен идеями.

Ключевые слова: общение, язык, потребность, сознание, речь,

восприятие, поведение, информация, личность, коммуникация.

Summary

The article analyzes the multifaceted process of cooperation between people the development of communication with them and the role of communication in the formation the spiritual imade of a person. Communication is unique to all living beings creatures and is most developed precisely human level. It was said the satisfaction of almost all the nedds of a person of a different kind is propess that saps on how well catered it is communication nedds. The analizing in communication of person has a lot of thinking goals and process of knowing the world.

Key words: communication, language, needs, thinking, consciousness, speech, perception, information, personality, communication.

Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv – baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Inson bioijtimoiy, ruhiy-ma'naviy mavjudot sifatida xilma-hil ehtiyojlarga ega. Ana shu ehtiyojlarning qondirib borilishi jarayonida inson shakllanadi, rivojlanadi, o'z ruhiy ma'naviy qiyofasini shakllantirib boradi. Inson ehtiyojlari tizimida muloqotga bo'lgan ehtiyoj eng muhim ahamiyat kasb etadi desak xato bo'lmaydi. Zero, insonning boshqa turdagi deyarli barcha ehtiyojlarining qondirilishi aynan uning muloqotga bo'lgan ehtiyojining nechog'li qondirilishi bilan bog'liq. Inson atrofidagi kishilar bilan muloqotga kirish jarayonida ularga o'zining barcha ehtiyojlari haqida xabar, ma'lumot beradi va atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi. Muloqat barcha tirik jonzotlarga xosdir. Aynan odamlar darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Nutq-inson psixik kamolotining shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir.

Muloqot hayot kechirishning bir shakli bo'lib, mazkur jarayonda inson yangi bilim va ko'nikmalar , tajriba hosil qiladi va o'z navbatida ushbu bilim va tajribalarni yana yangi muloqotlar natijasida atrofdagilarga yetkazib beradi.

Rus faylasufi R.S.Nemovning fikricha “Muloqot deyarli barcha tirik mavjudodlarda uchraydi. Lekin inson darajasida muloqot o'zining oliy darajasiga erishadi, ongliklik, estetiklik va maqsadga yo'nalganlik kabi jihatlarni kasb etadi va eng muhimi, nutq vositasida o'zining eng oliy darajasiga erishadi”¹. Inson organizmida muhim hayotiy elementlar inson tanasi bo'ylab harakatlanib, undagi hayotiylikni ta'minlagani kabi, muloqot jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ana shunday hayotiylikni ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir - biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Muloqotning verbal va noverbal vositalari ham mavjud. Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir - birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo'lishi kerak. Til so'z belgilari yig'indisidan iboratdir. So'zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir alohida odamning harakatlari va faoliyatlarini alohida odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi. Birinchidan, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy -tarixiy tajribasi belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilab olmaydi, u ota - onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam haqida barcha bilim va ko'nikmalarini o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu erda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi ijtimoiy -tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish

¹Р.С.Немов. Психология. Москва. ЛитРес. 2018. С.118
<https://scientific-jl.com/>

vositasi tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, har bir alohida odamning ish - harakati va faoliyati ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi.

Odamning "shaxsiy" tajribasi, o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli ularoq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishdan va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu erda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to'qnash keldik. So'z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Bugungi kunga qadar insoniyat kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va tartibga solishning muloqotdan samaraliroq mexanizmini o'ylab topgani yo'q. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, insoniyatning eng qadimiy ajdodlari muloqotga kirishishni o'ylab topmaganlarida balki insoniyat sivilizatsiyasi ham bo'lmas edi. Chunki, muloqot jarayonida inson atrofdagilar bilan informatsiya va ma'lumot almashadi, bilganlarini boshqalarga tarqatadi, bilmaganlarini boshqalardan o'rganadi.

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug'iladigan ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar bir - biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan haridor o'rtasida biror so'z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin.

Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir - birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir -birini to'g'ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. SHunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o'zaro ta'sir) va pertseptiv

(o'zaro idrok qilish). Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o'zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatining tashqil etish usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishi bilish pedagog uchun g'oyat muhimdir. Bu to'laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo'lga qo'yishini ta'minlaydi. Pedagogik muloqot-pedagog va o'quvchilarning o'zaro ta'sir etish usullari yig'indisidir.

Muloqotning mazmuni - axborot almashish, o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashqil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o'qituvchi hamda o'quvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni ta'minlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va butun dunyoda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti nihoyatda katta ahamiyatga ega. Olimlar muloqotni nutq va kommunikatsiya bilan bog'lab, shuningdek falsafiy psixologik muammo sifatida o'rganmoqdalar. Jumladan, psixolog olim V.N. Myasishev muloqot muammosini chuqur tadqiq qilgan va uni bir butun jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilishning eng muhim usuli sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: "Shaxs turlicha munosabatlarda o'zining turlicha qirralarini hattoki, qarama-qarshi sifatlarini namoyon qilishi mumkin"².

Rus tadqiqotchisi A.A.Bodalyev o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida muloqot masalaga katta e'tibor berib, bu muammoning kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A.A.Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur»³. Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxs sifatlarining o'rni, axloqiy fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa, xushmuomalalik,

²V.N.Мясишев. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений. Москва. 2011. С.125

³A.A.Бодалев. Акмеология. Москва. Изд.МГУ. 2010. С.261

<https://scientific-jl.com/>

kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabi axloqiy me'yorlar va tamoyillar uning qadriyatlar tizimidan yetarlicha o'rin egallagan bo'lsa, bunday shaxs bilan muloqot jarayoni oson kechadi. Chunki kishilar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular bir-birlari bilan samimiy bo'lishlari lozim.

Shaxsni muloqot usullariga o'rgatish jarayoni tizimli jarayon bo'lib, bolalar yoshlikdan, avvalo, oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri muloqot ko'nikmasini turli o'yinlar va mashg'ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha sharoitida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga kirishish ko'nikmalarini o'rgatadi. Dastlab, elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib toptiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar va maxsus fanlar orqali to'g'ri muloqotga kirishish ko'nikmalariga o'rgatiladi. Shaxsning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi ushbu jarayonda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Odamda muloqot maqsadlari juda ko'p. Jumladan, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish, uni yetkazish va fikr almashinishdir. Natijada, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarining muvofiqlashuvi sodir bo'ladi, shuningdek shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishiga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. I.P.C.Немов. Психология. Москва. Лит.Рес. 2018. С.118
2. В.Н.Мясишев. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений. Москва. 2011. С.125
3. А.А.Бодалев. Акмеология. Москва. Изд.МГУ. 2010. С.261
4. Киселов Г.С Свобода и эволюция. Вопросы философии. 2005г №10 С14
5. Моисеев, Н. Н. Современный рационализм и мировоззренческие парадигмы // Общественные науки и современность. – 1994. – № 3. – С. 77–87.

6. Муминова З.О. Атрибутивные свойства духовного мира человека // Universum: Общественные науки. - Москва: 2014. №3.
7. Муминова З.О. Синергетический анализ духовного бытия человека // Credo new. – Санкт-Петербург: 2015. №2
8. Muminova Z.O. Factors that forms human beyings moral beying // The USA journal of applied sciences. NY.2015. №2.
9. Muminova Z.O. Spiritual moral beying of humans in the sinergetik context // Austrian journal of humanities and social sciences. 2015/№3.
10. Muminova Z.O. Objective and subjective factors that forms humans moral beying // Theoretical and applied science. Philadelphiya, USA. 2016. №2